O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
B.A.Xolikov
2024-yil “___” ________

Ro‘yxatga olindi: № BD-60230100-1.09
2024-yil “___” ________

# TILSHUNOSLIK
# FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan tillari)

| Fan/modul kodi<br>TILSH1104 | | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>1 | ECTS – Kreditlar<br>4 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | Haftadagi dars soatlari<br>3 | |
| 1. | Fan nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Tilshunoslik | 48 | 72 | 120 |

2\. **1. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tilshunoslik fani, uning bo'limlari, o'rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumot berish, talabalarni tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari, kategoriyalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, talabalarda olingan bilimlarni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – til va jamiyat, til tizimi va tuzilishi, uning sathlari, birliklari va ularning namoyon bo'lish qonuniyatlari, tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi, dunyo tillarining klassifikatsiyasi haqida nazariy bilimlarning o'rni va ahamiyatini ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: «Tilshunoslik» fanining mazmuni, predmeti va metodi. Til – asosiy aloqa vositasi.** «Tilshunoslik» fanining mazmuni, predmeti va metodi Tilshunoslik fan sifatida. Tilshunoslik fanining obyekti va predmeti. Umumiy va xususiy tilshunoslik. Nazariy tilshunoslik. Amaliy tilshunoslik. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.

**2-mavzu: Til va tafakkur. Til va jamiyat. Tillarning o'zaro hamkorligi va rivojlanish qonuniyatlari.** Til va tafakkur munosabati. Til va tafakkur lingvistik muammo sifatida. Til tafakkur quroli va vositasi. Psixolingvistika. Til va jamiyat. Til va ijtimoiy tafakkur. Til va madaniyat. V. fon Gumboldt va lingvomadaniyatshunoslik. Sepir va Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi. Sotsiolingvistika. Bilingvizm va diglossiya. Tilning olamni anglash jarayonidagi va xalq yoki individning fikrlash faoliyatidagi ahamiyati. Tillar integratsiyasi va differensiatsiyasi. Adabiy til - til mavjudligining oliy ko'rinishi. Funksional tasnif. Millatlararo va xalqaro aloqa tillari. Tillarning o'zaro hamkorligi va rivojlanish qonuniyatlari. Milliy tillarning rivojlanishi.

**3-mavzu: Til – belgilar sistemasi. Til sathlari va uning birliklari.** Til – belgilar sistemasi. Belgi va belgilar sistemasi tushunchasi. Semiotika. Tilda «sistema» va «struktura» tushunchalari. Belgilar sistemasining turlari. Til sathlari



va uning birliklari. Til sathlari. Fonologik sath. Morfemik sath. So'z yasalishi. Leksik sath. Morfologik sath. Sintaktik sath. Gap.

**4-mavzu: Tilshunoslik tarixi.** Tilshunoslik tarixi Qadimgi Hind tilshunosligi. Qadimgi Gretsiya va Rim tilshunosligi. Platon. Arastu grammatikasi. Stoiklar ta'limoti (eramizdan oldingi III-I asrlar). Falsafiy va grammatik davrlar. Arab tilshunosligi.

**5-mavzu: Fonetika.** Fonetika. Nutq tovushlari tilning tabiiy materiali sifatida. Nutq tovushlarining akustikasi va artikulyasiyasi. Tilning artikulyasion bazasi va aksent. Nutq tovushlarining tasnifi. Vokalizm va konsonantizm. Unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar tasnifi. Nutqning fonetik bo'linishi: jumla (fraza), takt (sintagma), bo'g'in, tovush. Enklitika va enkliza hodisasi. Proklitika va prokliza hodisasi. Bo'g'in va uning turlari. Intonatsiyaning vazifasi. Urg'u va uning turlari. Nutq tovushlarining variantlari va variatsiyalari. Reduksiya. Nutq tovushlarining pozitsion va kombinator o'zgarishlari. Fonema tushunchasi va uning tovushdan farqi. Fonemalar tizimi va uning milliy o'ziga xosligi.

**6-mavzu: Leksikologiya.** Leksikologiya So'z tilning markaziy birligi sifatida. Leksikologiya va uning asosiy bo'limlari. So'zning xususiyatlari. So'z va leksema. Leksik ma'no va uning turlari. Leksik ma'noning kengayishi va torayishi.

**7-mavzu: Grammatika: morfologiya.** Grammatika fan sifatida. Morfologiya. Morfema va uning turlari. Tilning grammatik usullari. Affiksatsiya. Agglyutinatsiya va fuziya. So'zning morfologik va etimologik tarkibi. Tovush almashishlari va ichki fleksiya. Takror (reduplikatsiya).

**8-mavzu: Grammatika: sintaksis.** So'z qo'shilishi. Gapda so'z tartibi. Urg'u ko'chirish. Ohang. Sintaksis. Tilning sintaktik birliklari. Sodda gap tarkibida sintagmalar. Gap. Gap turlari. Gap bo'laklari. So'z birikmalari va ularning bog'lanish usullari. Gapning aktual bo'linishi.

**9-mavzu: Lingvistik tadqiqot metodlari.** Lingvistik tadqiqot metodlari. Tasviriy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Chog'ishtirish metodi. Distributiv tahlil metodi. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi. Transformatsion tahlil metodi. Oppozitsiya metodi. Komponent tahlil metodi. Stilistik tahlil metodi. Statistik metod. Avtomatik tahlil metodi. Tipologik tahlil metodi.

**10-mavzu: Yozuv**. Yozuv taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Yozuv paydo bo'lishining sabablari. Alfavit. Grafika. Orfografiya va uning asosiy tamoyillari: fonetik, morfologik, an'anaviy. Yozuvning maxsus turlari.

**11-mavzu: Tillar tasnifi.** Tillar tasnifi. Tillarning geneologik tasnifi. Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod. Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi: flektiv, agglyutinativ, ajratuvchi va mujassamlashtiruvchi tillar. Areal tasnif. Tillarning hududiy bo'linishi. Bilingvizm. Interferensiya hodisasi. Funksional

tasnif.

**12-mavzu: Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari**. Hozirgi zamon tilshunosligi. XX-XXI asrlar tilshunosligining yetakchi yo'nalishlari. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. Generativ tilshunoslik. Kognitiv tilshunoslik. Pragmalingvistika. Matn lingvistikasi. Etnolingvistika. Tipologik lingvistika. Kompyuter lingvistikasi. Matematik lingvistika. Paralingvistika. Neyrolingvistika.

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tilshunoslik fanining o'rganish obyekti
2. Tilning paydo bo'lishi
3. Tillarning o'zaro munosabatlari va rivojlanish qonuniyatlari
4. Fonetika va fonologiya
5. Leksikologiya va uning bo'limlari
6. Grammatika: morfologiya
7. Morfemika
8. Grammatika: sintaksis
9. Yozuv va uning rivojlanish bosqichlari
10. Tillarning geneologik tasnifi
11. Tilshunoslik tarixi
12. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

1. Tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar.
2. Turli tillardagi fonetik hodisalar.
3. Orfografiya va uning asosiy tamoyillari:
4. Turli tuzilishli tillarda so'z yasash usullarining umumiy va farqli jihatlari.
5. Etimologiya.
6. Ilmiy etimologiya, xalq etimologiyasi va «yolg'on etimologiya».
7. Turli tillarda so'z turkumlari.
8. So'z turkumlari va ularni guruhlash tamoyillari.



9. Gapning aktual bo'linishi.
10. Sintaktik inversiya.
11. Yozuvning tarixiy va zamonaviy turlari.
12. Tillarning geneologik tasnifi.
13. Til aloqalari.
14. Bilingvizm
15. Interferensiya
16. Til hodisalari va ularning ilmiy nomlanishi.
17. So'z yasalishi.
18. So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan komnetensiyalar)**

*Talabalar bilishi kerak:*

- Darslik va o'quv qo'llanmalarning boblari va mavzularini o'rganish.

Bunday ish natijalari seminar, kollokviumlarda hamda referatlar va individual berilgan topshiriqlar orqali ***tasavvurga ega bo'lishi kerak;*** **(bilim)**

- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***; **(ko'nikma)**
- Tilshunoslik fanining qoidalarini mustahkamlash bo'yicha manbalarni o'rganish, ularni tahlil qilish, usullarini qo'llash, tilshunoslikka doir muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** **(malaka)**

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar:
- interfaol keys-stadi;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;

| | |
|---|---|
| | - taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo'lib ishlash va himoya uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. -Тошкент, 2008.<br>2. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O'., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. -Toshkent, 2007/2013.<br>3. Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. -Андижон, 2007.<br>4. Muhamedova S., Yo'ldoshev I., Madjidova R., Sharipova O'., To'xtamatov X. Tilshunoslik asoslari. Elektron darslik.<br>5. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент, 2007/2010.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 29 б.<br>7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. -Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 47 б.<br>8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017, 485 б.<br>9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 6-сон, 70-модда. |



| | |
|---|---|
| | 10. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи//Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.<br>11. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2014, 46 б.<br>12. Зокиров М., Маджидова Р., Султонова Ш. Ўзбекча-русча-инглизча лингвистик атамалар мухтасар луғати. -Тошкент, 2016.<br>13. Немченко В.Н. Введение в языкознание. -М., 2008.<br>14. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М., 2004.<br>15. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь. -М., 2006.<br>16. Авлакулов Я.И. Ўзбек тилининг ономастик кўлами. -Тошкент, 2017.<br>17. Кодухов В.И. Общее языкознание. -М., 1974.<br>18. Левицкий Ю.А. Общее языкознание. -М., 2009.<br>19. Умархўжаев М. Умумий тилшунослик. -Андижон, 2010.<br>20. Брусенская Л.А. Учебный словарь лингвистических терминов. -Ростов н/Д., 2005.<br>21. Sanaqulov U, Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi (o'quv qo'llanma). -Samarqand: SamDU, 2019, 164 b.<br>22. Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh., Turniyozov Sh. Lingvistik nazariyalar (o'quv-uslubiy qo'llanma). -Samarqand: SamDCHTI, 2022,<br>128 b.<br>**Axborot manbaalari**<br>23. www.tdpii.uz<br>24. www.pedagog.uz |

| | |
|---|---|
| | 25. www.ziyonet.uz<br>26. www.edu.uz |
| 7. | Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil «____» _____ dagi «____»-sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>B.Turniyazov – SamDChTI «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasi dotsenti, (DSc)<br>D.Mamirova – SamDChTI «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasi dotsenti, (PhD) |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>S.Umirova – SamDU «O'zbek tilshunosligi» kafedrasi dotsenti, (PhD)<br>Sh.Turniyazova – SamDChTI «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasi dotsenti, (DSc) |